

SUN'IY INTELLEKT RIVOJI-YANGI RENESSANSNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Abdurahmonov Zafar Batirovich

*Bojxona instituti Matematika va axborot texnologiyalari
kafedrasida katta o'qituvchilari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yangi Renessans bosqichini shakllantiruvchi muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Ilmiy-texnologik taraqqiyot, raqamli transformatsiya, bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion ekotizimlar rivojida sun'iy intellektning o'rnini va ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim, fan, iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarga ta'siri, uni joriy etish bilan bog'liq imkoniyatlar hamda xavf-xatarlar kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektni barqaror rivojlanish va intellektual salohiyatni oshirish vositasi sifatida samarali boshqarish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yangi Renessans, raqamli transformatsiya, innovatsiya, bilimlar iqtisodiyoti, texnologik taraqqiyot, intellektual jamiyat.

РАЗВИТИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР НОВОГО РЕНЕССАНСА

Абдурахмонов Зафар Батирович

*старший преподаватель кафедры математики
и информационных технологий Таможенного института*

Аннотация: В данной статье анализируется стремительное развитие технологий искусственного интеллекта как важнейший фактор формирования нового этапа Ренессанса в развитии современного общества. Раскрывается роль и значение искусственного интеллекта в научно-технологическом прогрессе,

цифровой трансформации, развитии экономики знаний и инновационных экосистем. Кроме того, на основе комплексного подхода рассматривается влияние искусственного интеллекта на образование, науку, экономику, государственное управление и социальную сферу, а также возможности и риски, связанные с его внедрением. Результаты исследования обосновывают необходимость эффективного управления искусственным интеллектом как инструментом устойчивого развития и повышения интеллектуального потенциала общества.

Ключевые слова: искусственный интеллект, новый Ренессанс, цифровая трансформация, инновации, экономика знаний, технологическое развитие, интеллектуальное общество.

THE DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A KEY FACTOR OF THE NEW RENAISSANCE

Abdurakhmonov Zafar Batirovich

Senior Lecturer, Department of Mathematics
and Information Technologies, Customs Institute

Abstract: This article analyzes the rapid development of artificial intelligence technologies as a key factor in shaping a new stage of Renaissance in the evolution of modern society. The role and significance of artificial intelligence in scientific and technological progress, digital transformation, the knowledge-based economy, and the development of innovative ecosystems are revealed. In addition, the impact of artificial intelligence on education, science, the economy, public administration, and the social sphere, as well as the opportunities and risks associated with its implementation, are examined through a comprehensive approach. The research findings substantiate the necessity of effective governance of artificial intelligence as a tool for sustainable development and enhancement of intellectual potential.

Keywords: artificial intelligence, new Renaissance, digital transformation, innovation, knowledge economy, technological development, intelligent society.

Kirish.

Sun'iy intellektning ijtimoiy hayotga ta'siri juda keng. U odamlarning kundalik hayotini osonlashtirish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish va yangi xizmatlar yaratish imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan dasturlar, odamlarning ma'lumotlarni tez va samarali qayta ishlashlariga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, ish samaradorligini oshiradi va vaqtni tejash imkonini beradi. Biroq, bu jarayonlar, ijtimoiy hayotda yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Sun'iy intellektning rivojlanishi, mehnat bozori va ish o'rinlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Avtomatlashtirish va robotlashtirish jarayonlari, ko'plab ish o'rinlarini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, oddiy va takroriy ishlarni bajaruvchi ishchilar uchun xavfli hisoblanadi. Natijada, ishchilar o'rtasida ishsizlik darajasi oshishi mumkin. Bunday vaziyat, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va ijtimoiy tartibsizliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektning rivojlanishi bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish va ishchilarning malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Muhokama va natijalar.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030- yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Prezident qarori bilan sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 mlrd dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan: sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish; YAIDXP (my.gov.uz) da sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish; sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini o'ntaga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekistonni birinchi 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish. 2025-yil 1-sentyabrgacha loyihalar va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash

maqsadida qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq barcha axborot xavfsizligi choralarini ko'rgan holda katta ma'lumotlar bazasi yaratiladi. 2026-yil 1- maygacha sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish loyihalari doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan hisoblash quvvatlari ishga tushiriladi.[1]

Bu bejizga emas. Mamlakatimizda yangi Renessansga erishish maqsadlari qo'yilgan ekan, sun'iy intellekt bobida ham biz hech kimdan kam bo'lmasligimiz lozim. Bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla – "Uchinchi Renessans" zahirida ana shunday ulug' bir ezigulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin.

Zero, Renessans – uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o'tmoq demakdir. Demak, biz ana shunday qutlug' bir davrda, dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminda uchinchi Renessansga poydevor qo'yiladigan zamonda yashamoqda ekanmiz, hech bir sohada ma'rifiy dunyodan ortda qolmasligimiz lozim. Jaloliddin Rumiyning bir hikmati doimo ilhombaxshdir: "Go'zal kunlar kelishini kutma, unga qarab bormog'ingni

unutma". O'zbekistondagi yangi Uyg'onish ma'rifati ham ayni shu tamoyilga asoslanganini, ezigu niyatlar amalga oshayotganini anglash esa yanada shijoat baxsh etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori, mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan muhim hujjatdir. Ushbu qaror, sun'iy intellektning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Qarorda, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan. Birinchi navbatda, ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish masalalari e'tiborga olingan. Bu, sun'iy intellektni ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa sohalarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, qarorda ta'lim tizimida sun'iy intellektga oid bilimlarni oshirish va yosh avlodni ushbu sohada tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu, kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun zarur bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Qarorda,

davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, jamoatchilik fikrini inobatga olish va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy mas'uliyatni oshirish masalalari ham ko'rsatib o'tilgan. Bu, sun'iy intellektning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, qarorda sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsizligini ta'minlash va ma'lumotlar bazalarini himoya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu, sun'iy intellekt tizimlarining samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun zarurdir. Umuman olganda,

Prezident qarori, sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi va mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu strategiya amalga oshirilganda, sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyatimizning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va kelajak avlodlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sun'iy intellektning rivojlanishi, axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Savollar paydo bo'ladi. Ular adolat va axloq doirasida bo'lishini kim kafolatlaydi? Inson tafakkurini anglamaydigan, ammo uni boshqara oladigan texnologiyalarga qanday cheklovlar qo'yilishi kerak? Mashinalar chindan ham shunchalik betarafmi yoki ularning "xolisligi" aslida insoniyat yaratgan algoritmlar orqali yashirin manipulyatsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, real haqiqatni o'zgartirib yuboradigan kuchmi? Eng muhimi, qarorlar qabul qilish mas'uliyatini unga yuklash qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Umuman, inson o'zi yaratgan texnologiyani to'la nazorat qila oladimi yoki biz asta-sekin sun'iy va tabiiy tafakkur o'rtasidagi chegaralar zaiflashib borayotgan yangi davrga kirayapmizmi? Bu savollarga tayyor javob yo'q, ammo ular haqidagi mulohaza va munozaralar kelajak texnologiyalari hamda jamiyat taqdirini belgilab beruvchi azaliy mushohadalarning in'ikosidir.

Asosiy masala shundaki, sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonida adolat va shaffoflik masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Agar sun'iy intellekt tizimlari noto'g'ri ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilsa, bu insonlar uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellektning ishlatilishi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni buzishi va insonlarning shaxsiy hayotiga aralashishi mumkin.

Bunday vaziyatlar, axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi va jamiyatda ishonchni pasaytirishi mumkin. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonlarini avtomatlashtirish va individual yondashuvlarni joriy etish orqali, sun'iy intellekt o'quvchilarning o'qish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Biroq, bu jarayonlar, ta'lim tizimida yangi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari, o'quvchilarning ijodkorligini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ta'lim olish imkoniyatlari, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin, chunki barcha o'quvchilar bir xil darajada texnologiyalarga ega emas. Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektning qo'llanilishi, diagnostika va davolash jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida tahlil qilingan ma'lumotlar, shifokorlarga to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Biroq, bu jarayonlar ham axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonida inson omilining yo'qligi, shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi ishonchni pasaytirishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan tibbiy xizmatlar, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin, chunki barcha bemorlar bir xil darajada texnologiyalarga ega emas. Sun'iy intellektning rivojlanishi, huquqiy masalalarni ham keltirib chiqaradi.

Sun'iy intellekt tizimlarining ishlashi va qaror qabul qilish jarayonida, kim javobgar bo'lishi kerak? Agar sun'iy intellekt tizimi noto'g'ri qaror qabul qilsa, bu kimning mas'uliyati hisoblanadi? Bunday savollar, huquqiy tizimda yangi qoidalar va qonunlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ishlatilishi, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va himoya qilish uchun yangi qonunlar va me'yorlarni ishlab chiqishni talab qiladi.[8; 234-b]

Ijtimoiy tarmoqlar sun'iy intellektdan keng foydalanmoqda. Ular foydalanuvchilarning qiziqishlari va xulq-atvorlarini tahlil qilish orqali, maqsadli reklama va kontentni taklif qilish imkonini beradi.

Biroq, bu jarayonlar, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ularni ishlatish bilan bog'liq axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947- sonli Farmonining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qarori.2-3-ilovasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni.
4. Raximova D.N., Aripov A.N. va boshqalar. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot.– T.: G‘ofur G‘ulom ijodiy uyi, 2011-y.
5. Raximova D.N., Kasimova N. Принципы управления персоналом в Японии. Потенциал современной науки. 2016 г. №4(21).
6. Xodiyev B.Yu. Sovershenstvovaniye sistema upravleniya vuzami v sovremennyykh usloviyax.–T.: Iqtisodiyot va ta’lim. 2003 g.
7. Otaniyozov B. Ta’lim menejmentining avtomatlashtirilgan elektron tizimi va uning ahamiyati.–T.: Bojxona axborotnomasi №2. 2019-y.